



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 10 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 10

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 10



ТОШКЕНТ-2025

**Бош мухаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош мухаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат техника университети

**Халикова Рахбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат университети

**Махкамova Надира Рахмановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Агамуратовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодири Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Андижон давлат университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ИИБ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Озарбайжон давлат университети

**Сайнова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Таниева Гулдона Мамановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайджон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
**Масъул котиб**

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Бахадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
**Масъул котиб**

**Исоқов Бахтиёр Робидинович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Наманган давлат университети

**Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети

**Турсунова Юлдуз Бобоқуловна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
ЎзР. ФА. Тарих институти

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


<b>1. Шоҳистахон Улжаева</b> ТАРИХИЙ ЙЎЛЛАР ЧОРРАҲАСИДА: АМИР ТЕМУР ВА ТЎХТАМИШХОН.....	5
<b>2. Jummagul Abduraxmanova</b> Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti TOTALITAR TUZUM VA TA'LIM TIZIMIDAGI HOLAT (1925–1941 yillar).....	10
<b>3. Гулнара Жолдасбаева</b> ТНОГРАФИЧЕСКИЕ МОТИВЫ КАРАКАЛПАКСКОГО ГЕРОИЧЕСКОГО ЭПОСА «КОБЛАН».....	17
<b>4. Dilshod Abdullayev</b> 1946-1958-YILLAR O'ZBEKISTON SSRDA O'RTA MAXSUS TA'LIM TIZIMIDAGI VAZIYAT.....	23
<b>5. Фарзия Ансорова</b> ЗВАНИЯ И ДОЛЖНОСТИ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ В ТРУДЕ «ТАЪРИХИ САЛИМЎ» МИРЗО МУХАММАДА САЛИМБЕКА.....	28
<b>6. Faxriddin Yormatov</b> O'ZBEKISTONDA NURONIYLARNI HAR TOMONLAMA QO'LLAB QUVVATLASHNING IJOBIY NATIJALARI.....	37
<b>7. Шаходат Зайниддинова</b> ОСОБЕННОСТИ СТРУКТУРНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ, ПРОВЕДЕННЫХ В СИСТЕМЕ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ В ПОСЛЕДНИЕ ГОДЫ.....	43
<b>8. Muborak Matyakubova</b> XIVA XONLIGIDA IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGI: IQTISODIY TARAQQIYOT OMILLARI.....	49
<b>9. Diloram Ziyayeva</b> IX-XII ASRLARDA O'ZBEK DAVLATCHILIGI. IJTIMOY, SIYOSIY-IQTISODIY HAYOTI. AJDODLARIMIZNING JAHON SIVILIZATSIYASI TARAQQIYOTIGA QO'SHGAN ULKAN HISSASI.....	55
<b>10. Farxod Ziyayev</b> XX ASRNING 20-30-YILLARIDA SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDA YURITGAN SIYOSATI, UNING MOHIYATI VA OQIBATLARI. SIYOSIY QATAG'ONLIK.....	60
<b>11. Shaxodat Ruzmatova</b> XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA QO'QON XONLIGI AHOLISINING IJTIMOY TUZILISHI.....	65
<b>12. Fotima Shirinova</b> TURKISTONDA MUSTABID SOVET TUZUMIGA QARSHI QUROLI HARAKAT.....	71



**Jummagul Nomazovna Abduraxmanova,**  
Tarix fanlari nomzodi, dotsent  
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

## **TOTALITAR TUZUM VA TA'LIM TIZIMIDAGI HOLAT (1925–1941 yillar)**

**For citation:** Jummagul N. Abdurakhmanova. THE TOTALITARIAN REGIME AND THE SITUATION IN THE EDUCATION SYSTEM (1925–1941). Look to the past. 2025, vol. 8, issue 10.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17548846>

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada 1925-1941 yillar davrida O'zbekistonda sovet ta'lim tizimining shakllanishi va uning butun sovet miqyosidagi siyosiy–mafkuraviy jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda rivojlanishi tahlil etilgan. Tadqiqotda totalitar tuzumning ta'lim sohasida namoyon bo'lishi, o'quv jarayonining mafkura ostiga olinishi hamda sovetcha kadrlar tizimining shakllanishi masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Arxiv va tarixshunoslik manbalari asosida an'anaviy, eski usuldagi maktablarning transformasiya jarayonlari, ularning sovet ta'lim tizimiga integrasiya qilinishi yoritilgan. Shu bilan birga, xalq ta'limi tizimini kadrlar bilan ta'minlashdagi muammolar va ularning oqibatlarini tahlil etilgan, maktab, o'rta maxsus hamda oliy ta'lim tizimlarining moddiy–texnika bazasi holati ko'rsatib berilgan. Ta'lim dasturlari, o'quv rejalari va darsliklar kommunistik partiyaning qat'iy ko'rsatmalari asosida, mafkuraviy yo'nalishda ishlab chiqilgani ta'kidlangan. Shuningdek, sovet hokimiyatining qatag'on siyosati natijasida ta'lim tizimi xodimlariga nisbatan amalga oshirilgan ta'qiblar va ularning fojiali taqdiri yoritib berilgan. Olib borilgan tahlillar natijasida sovet davrida totalitar ta'lim modeli shakllanishining ayrim qonuniyatlari va uning O'zbekistondagi ta'lim tizimiga ta'siri aniqlangan. Bundan tashqari sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan qatag'onlik siyosati vaqtida barcha sohalar qatori ta'lim tizimi xodimlarining ham qatag'onga uchrashi hamda ularning ayanchli taqdirlari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Sovet hokimiyati, kommunistik mafkura, “madaniy inqilob”, sovet tartibidagi ta'lim tizimi, kadrlar muammosi, ziddiyatlar, qatag'on siyosati.

---

**Джуммагуль Номазовна Абдурахманова,**  
Кандидат исторических наук, доцент  
Ташкентский экономико-педагогический университет

## **ТОТАЛИТАРНЫЙ РЕЖИМ И СИТУАЦИЯ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ (1925–1941гг.)**

### **АННОТАЦИЯ**

В данной статье описывается становление советской системы образования в период с 1925 по 1941 год, возникновение тоталитарного режима в сфере образования, советское

отношение к школам старого образца в Узбекистане и вопрос подготовки кадров советского образца. В свою очередь, также описываются проблемы советской системы образования в обеспечении сферы образования кадрами и их последствия, состояние материально-технической базы школьной, средней специальной и высшей систем образования, создание учебных программ, планов и учебников для учебных заведений на основе идеологии Коммунистической партии со строгими инструкциями. Кроме того, освещаются репрессии работников всех отраслей, включая систему образования, в период политики репрессий, проводимой советской властью, и их трагическая судьба. Особое внимание уделено проявлению тоталитарного режима в сфере образования, идеологизации учебного процесса и формированию кадров советского типа. На основе архивных и историографических источников раскрываются особенности трансформации традиционных школ старого образца, их интеграции в советскую систему, а также анализируются причины и последствия кадрового дефицита в сфере народного образования. Показано, что учебные программы, планы и учебники создавались в условиях жёсткого партийного контроля и отражали идеологические установки Коммунистической партии. Освещается влияние репрессивной политики советской власти на педагогические кадры, их массовые преследования и трагические судьбы, что в совокупности позволило автору выявить закономерности формирования тоталитарной модели образования в раннесоветский период.

**Ключевые слова:** советская власть, коммунистическая идеология, «культурная революция», советская система образования, кадровые проблемы, конфликты, политика репрессий.

---

**Jummagul N. Abdurakhmanova,**

Candidate of Historical Sciences, Associate Professor  
Tashkent University of Economics and Pedagogy

## **THE TOTALITARIAN REGIME AND THE SITUATION IN THE EDUCATION SYSTEM (1925–1941)**

### **ABSTRACT**

This article describes the formation of the Soviet education system between 1925 and 1941, the emergence of the totalitarian regime in the field of education, the Soviet attitude toward traditional schools in Uzbekistan, and the issue of training personnel of the Soviet type. It also examines the problems of providing the education sector with qualified personnel and their consequences, the condition of the material and technical base of general, secondary specialized, and higher education systems, as well as the creation of curricula, study plans, and textbooks for educational institutions based on the ideology of the Communist Party under strict directives. In addition, the article highlights the repressions of workers from various sectors, including those in the education system, during the repressive policy pursued by the Soviet authorities, and their tragic fates.

Special attention is paid to the manifestation of the totalitarian regime in the sphere of education, the ideological orientation of the teaching process, and the formation of Soviet-style professional cadres. Based on archival and historiographical sources, the article reveals the features of the transformation of traditional schools of the old type, their integration into the Soviet system, and analyzes the causes and consequences of the personnel shortage in public education. It is shown that educational programs, curricula, and textbooks were developed under strict party control and reflected the ideological principles of the Communist Party. The impact of the Soviet repressive policy on pedagogical personnel, their mass persecution, and tragic destinies is also illuminated. Altogether, the research allowed the author to identify the patterns of the formation of a totalitarian model of education in the early Soviet period.

**Index Terms:** Soviet authority, communist ideology, “cultural revolution”, Soviet-style education system, personnel issues, contradictions, repression policy.

## 1. Kirish:

Har bir tarixiy davrlarda ilm–fan, madaniyat, ta’lim tizimiga munosabat har xil bo’lgan. Ijtimoiy hayotning tarkibiy qismlaridan biri bo’lgan ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotining har qaysi davrida o’ziga xos tarzda yaratilgan.

Sovet hokimiyati davri 1925–1941 yillarida ta’lim tizimiga bo’lgan munosabatga aynan XX asrning 20–30 yillariga nazar tashlasak, bu davr o’zining murakkabligi va ziddiyatligi bilan ajralib turadi. Mazkur yillarda kommunistik mafkura asosida kompartiya o’zining siyosatini hayotga tatbiq qilish uchun “shaklan milliy, mazmunan sosialistik” g’oyani targ’ib qiluvchi “madaniy inqilob” tadbirlarini ishlab chiqdi va uni shoshilinch tarzda amalga oshirishga kirishdi. Jamiyat ijtimoiy hayotning bir bo’lagi bo’lgan ta’lim tizimida ham mafkuraviy ta’sirini o’tkazib bordi. Sovet hokimiyati o’rnatilgan dastlabki yillardanoq madaniyat, ta’lim sohasida hukmron davlat mafkurasiga mos o’zgarishlarni amalga oshirishga kirishildi.

Sovet tuzumi tomonidan bir qator chora–tadbirlarning amalga oshirilishi avvalo, mahalliy aholi orasidan chiqqan ta’lim tizimi xodimlari, madaniyat arboblari, milliy ma’rifatparvarlarning say’i harakatlari natijasida XX asr 20–yillarining birinchi yarmidan boshlab O‘zbekiston hududida madaniy hayot kommunistik mafkuraga xos ko‘rinishda qaror topa boshladi.

## 2. Metodlar va o‘rganilish darajasi:

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy– mantiqiy tahlil, ketma–ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo’lib, unda XX asrning 20–30–yillarida sovet hokimiyati tomonidan olib borilgan qatag’onlik siyosatining ta’lim sohasidagi ko‘rinishi, ta’lim sohasida faoliyat yuritib kelayotgan xodimlar, o’qituvchilar bilan bir qatorda oliy o’quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarning ham qatag’on qilinishi, qatag’onga uchragan insonlar ayanchli taqdirlari yoritib berilgan.

Sovet hokimiyati yillarida ta’lim tizimi, uning holati, kadrlar masalasi, ta’lim tizimidagi muammo va ziddiyatlarni yoritib bergan asarlar va ilmiy–tadqiqotlarning davriyligidan kelib chiqqan holda ikki qismga bo’lish mumkin:

– sovet tuzumi davrida yaratilgan O‘zbekistonda ta’lim tizimi faoliyatiga bag’ishlangan ilmiy – tadqiqot va asarlar;

– Mustaqillik davrida ta’lim sohasi bo’yicha olib borilgan tadqiqot, risola va asarlar.

Sovet davrida O‘zbekistonda ta’lim masalalariga doir olib borilgan tadqiqotlar, chop etilgan adabiyotlarning aksariyati kuchli mafkuraviy tazyiq va kommunistik g’oya ta’siri ostida yaratilgan bo’lib, ularda amalga oshirilgan barcha ishlar “oktyabr inqilobi”ning mahsuli sifatida baholangan. Hukmron mafkura talablaridan kelib chiqqan holda ta’lim sohasidagi o’zgarishlarda kommunistik partiyaning roli alohida ko‘rsatilgan holda tarixiy jarayonlar faqat bir tomonlama yoritilgan.

Ushbu davr O‘zbekiston ta’lim tizimiga oid adabiyotlarga P.I.Serbov, Qori Niyoziy, S.Rajabov, I.Qodirov, M.Ochilov, R.Sharofiddinov, F.Oripov, N.Inoyatov, M.Irgashev, R.A’zamova, F.Sharipov, R.Mavlonova, S.Sodiqov va boshqalarning asarlarini alohida qayd etish mumkin.

Mustaqillik davrida sovet tuzumi yillaridagi ta’lim tizimi masalasini xolisona yoritgan ilmiy–tadqiqot ishlari yuzaga keldi. Xususan, I.Tursunov, A.Choriyev, I.Shamsiyeva, N.Mustafayeva, M.To’rayeva, F.Ergashev, A.Obidov, R.Siddiqov, B.Qosimov, J.Yo’ldoshev va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari, ko’plab asarlarini qayd etish mumkin. Mazkur tadqiqot va asarlarda sovet tuzumi davrida ta’lim tizimi, pedagogik kadrlar tayyorlashdagi, maktab va o’rta maxsus bilim yurtlarini tashkil etishdagi muammolar yangicha talqin asosida o’rganilgan.

Qatag’on siyosatining ta’lim tizimiga ta’siri va uning oqibatlari, qatag’on qilingan ta’lim sohasi xodimlarining taqdirlari yoritib berilgan ilmiy–tadqiqot va asarlarni ham alohida aytib o’tish kerak.

O‘zbekiston o’z mustaqilligini qo’lga kiritgandan boshlab to hozirgi kungacha qatag’on siyosat, uning oqibatlari, qatag’onga uchragan vatandoshlarimizning ayanchli taqdirlari yoritilgan ko’plab ilmiy–tadqiqot ishlar, asarlar, risola va maqolalar yaratilib, nashr qilinib kelinmoqda. Bunga B.Qosimov, N.Karimov, S.Ahmedov, H.Uzoqov, D.Alimova, H.Ahrorova, B.Hasanov, X.Yunusova, R.Shamsutdinov, N.Rashidova, F.Qilichev, K.Vohidova, B.Irzayev, A.A.Yo’ldoshev,

Yu.B.Tursunova va boshqa ko'plab tadqiqotchi hamda olimlarni misol keltirib o'tish mumkin. Ularning ilmiy tadqiqotlari orqali qatag'onga uchragan insonlarning nomlarini aniqlab, ayanchli taqdirlari va faoliyati yoritilib, o'z navbatida xalqimizga tanitib borilmoqda.

### 3. Tadqiqot natijalari:

Sovet hokimiyati o'rnatilgan dastlabki yillardan boshlab, kommunistik siyosat va uning goyalarini amalga oshiruvchi insonlarni tarbiyalash maqsadida sovet ta'lim tizimini yaratish chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Ta'lim tizimi hukmron mafkuraga xos yangi ko'rinishda qaror topa borib, aholining butun hayotini qamrab ola boshladi.

Tashkil etilayotgan yangi sovet maktablari quyidagi asoslarda joriy qilindi: 1 sovet maktablari tizimi ikki bosqichli shaklda tasdiqlandi. Birinchi bosqichda 8 yoshdan 13 yoshgacha bo'lgan bolalar (besh yillik o'qish), ikkinchi bosqich 13 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan bolalarni (to'rt yillik o'qish) o'qitish mo'ljallandi va 17 yoshgacha bo'lgan bolalarni majburiy umumiy va politexnik (nazariy va amaliy ishlab chiqarishning muhim tarmog'lari bilan tanishtiradigan) ta'limga jalb qilish zarurligi ham ta'kidlandi<sup>[1]</sup>.

Sovet hokimiyati XX asrning 20–30–yillariga kelganda siyosiy va iqtisodiy jihatdan o'z mavqeini mustahkamlab olgan edi. Ijtimoiy hayotning barcha sohalariga bolsheviklar partiyasi o'zining mafkuraviy ta'sirini o'tkazib bordi. Bu jarayon ta'lim tizimida jiddiy tus oldi. Ma'muriy–buyruqbozlik tizimining mustahkamlanib borishi, sovet ta'lim muassasalarining tashkil topishi, ular ustidan qattiq mafkuraviy nazoratning o'rnatilishi bilan bir paytda savodxonlik darajasi ham o'sib bordi. Lekin, sovet tartibidagi ta'lim tizimini yaratishda bir xillilik, bir shakllilik amalga oshirildi. Bundan tashqari maktab, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarini tashkil qilish, ularning o'quv reja, dasturlarini, darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratish qat'iy ko'rsatma va nazorat asosida olib borilar edi. Hattoki, professor–o'qituvchilar hamda talabalarning milliy tarkibi ham sovet ma'murlari uchun katta ahamiyatga ega edi.

1925 yil fevral oyida O'zbekiston Kompartiyasining I s'ezdi bo'lib o'tadi. Bu s'ezdda maorif masalalariga alohida to'xtalib, maktab yoshidagi bolalarni o'quv maskanlariga to'liq jalb qilish lozimligi uqtirib o'tildi<sup>[2]</sup>. Buning uchun sovet maktablari sonini oshirish, katta yoshli aholi uchun esa savodsizlikni tugatish maktablarini kengaytirish borasida chora–tadbirlar belgilandi. Shu asosda sovet maktablari sonini oshirish choralari ko'rildi.

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida sovet maktablari bilan bir qatorda eski usul maktablari ham faoliyat yuritib kelardi. Chunki sovetlar o'z humkronligini mustahkam o'rnatib olgunga qadar eski usul maktablari faoliyatini to'xtatishmagan. 1925–1926 yillarda O'zbekistonda 100 ga yaqin vaqf maktablari, 1600 dan oshiq eski usul maktablari mavjud bo'lib, shulardan 250 tasi yashirin holda faoliyat olib borar edi. Ushbu yillarda O'zbekistonda sovet maktablari soni 842 tani tashkil qilar edi<sup>[3]</sup>.

1924–1925 o'quv yilidan boshlab, ta'lim tizimi faoliyatini yaxshilash uchun ajratilayotgan mablag'lar hajmi ham oshirildi. Ta'lim tizimini joriy qilish, “savodsizlik”ni tugatish kabi islohotlar og'ir sharoitda zo'ravonlik bilan amalga oshirildi. Asosiy maqsad sotsializmga xizmat qiladigan, yoshlarni partiya g'oyalari ruhida tarbiyalaydigan pedagoglar, sotsializmni ijtimoiy–iqtisodiy, ma'naviy va mafkuraviy mustahkamlashda yordam beradigan turli sohalaridagi mutaxassis kadrlar tayyorlash ko'zda tutilgan edi. Garchi, ta'lim tizimi uchun mablag'lar miqdori yil sayin oshirib borilgan bo'lsada, ta'lim tizimi moddiy–texnika bazasini mustahkamlash, malakali mutaxassislar bilan ta'minlash borasida talaygina muammolar mavjud bo'lib, bu hol ayniqsa, o'quv muassasalarni binolar bilan ta'minlash borasida yaqqol namoyon bo'ldi.

Sovet hokimiyati sovet tipidagi maktablar sonini oshirib borish mobaynida eski usul maktablari faoliyatiga ham chek qo'yila boshlandi. 1928 yil 11 noyabrda O'zSSR MIQ 2–chaqiriq IV sessiyasida “Eski usul maktab va madrasalarni tugatish to'g'risida” qaror qabul qildi. Ushbu qaror chiqqan davrdan boshlab, shu vaqtning o'zida O'zbekistonda 1200 ta eski usul maktablari tugatildi. 1928 yil oxiriga kelib, sovetlar tomonidan eski usul maktablari faoliyati butunlay to'xtatildi<sup>[4]</sup>. Hatto mazkur maktablar va madrasalarni tugatish ishlari bilan davlat siyosiy boshqarmasi (OGPU) ham shug'ullanib, boshqarma ushbu maktablar haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishda, ularga nisbatan ko'riladigan choralarni ham mahfiy ravishda olib borishgan. Shu tariqa O'zbekiston

hududidagi xalqlarning ma'naviy hayoti, milliy madaniyati tarixida katta o'rin egallagan musulmon maktab va madrasalari faoliyati sovetlar yuritgan siyosat tufayli to'xtatildi.

Sovetlar tomonidan bir qator chora–tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida maqalliy aholi orasidan ta'lim xodimlarining shakllanishi, madaniyat, ma'rifat, ta'lim–tarbiyaning kompartiya mafkurasiga xos yangi ko'rinishda qaror topib borishi natijasida sovet maktablari, o'rta maxsus hamda oliy ta'lim muassasalarining soni ortib bordi. 1924–1925 o'quv yilida 160 ta sovet tipidagi maktablar tashkil etilgan bo'lib, ularda 17209 nafar o'quvchi ta'lim olgan. 1941 yilga kelganda O'zbekistonda maktablar soni 5504 dan oshgan edi, mazkur maktablarda 1 mln.315 ming o'quvchi tahsil olar edi<sup>[5]</sup>. Mazkur yillarida o'z navbatida O'zbekistonda o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari soni ham ko'paytirib borildi. Chunki, xalq xo'jaligining turli sohalariga sovet mutaxassislari aynan sotsializm, leninizm g'oyalari bilan sug'orilgan kadrlarni tayyorlashni tezlashtirish zarur edi. Natijada oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari soni ham ortib borildi. 1924–1925 o'quv yilida O'zbekistonda 2–ta oliy, 23–ta o'rta maxsus o'quv yurtlari mavjud bo'lib, ularda 66 ming talaba tahsilgan bo'lsa, 1940–1941 o'quv yilida oliy o'quv yurtlari 30–taga, o'rta maxsus o'quv yurtlari soni 98–taga etdi<sup>[6]</sup>.

Garchi ta'lim muassasalari, ularda tahsil olayotgan soni ortib borgan bo'lsada, mavjud mazkur o'quv dargohlaridagi professor–o'qituvchilar hamda talabalar tarkibida mahalliy millat vakillari ozchilikni tashkil qilar edi. Birgina Samarqand Pedagogika Akademiyasining 1932 yildagi holati bilan tanishib chiqsak, ushbu ta'lim muassasasida faoliyat olib borayotgan 16 ta professordan 3 nafari, 42 ta dotsentning 13 tasi, 42 ta assistentning 10 nafari mahalliy millat vakillaridan edi. Nafaqat professor–o'qituvchilar oliygohda tahsil olayotgan talabalar tarkibida ham shunday holatni kuzatish mumkin. Masalan shu oliygohda o'qiyotgan 315 nafar talabaning 73 nafarigina mahalliy millat vakillaridan edi<sup>[7]</sup>. Bundan tashqari mazkur oliygohda faoliyat olib borayotgan professor–o'qituvchilarning 80–90 foizi o'zbek tilini umuman bilishmas edi.

Oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fanlarning aksariyatini SSSR tarixi ya'ni Rossiya xalqlari tarixi, bolshevizm va kommunistik partiya tarixi kabi fanlar tashkil qilgan edi.

Mazkur yillarda oliy ma'lumotli pedagogik kadrlar masalasi ham eng ziddiyatli holatlardan biri bo'lgan. Viloyatlarda oliy malumotli pedagogik kadrlar tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlari juda ham kamchilikni tashkil qilgan, asosan, bir nechta pedagogika texnikumi va kurslari tashkil etilgan edi. Chekka hududlardagi maktablar asosan pedagogik kurslarni tugatgan o'qituvchilar hisobidan ta'minlangan. Viloyatlardagi mavjud oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining aksariyat qismini qishloq xo'jaligi uchun kadrlar tayyorlaydigan o'quv yurtlari tashkil etardi. Bu kurslar tezkorlik bilan qishloq xo'jaligi uchun texnik–mexanik va boshqa mutaxassislar yetkazib berishga mo'ljallangan edi.

Ijtimoiy hayotda shiddatli ziddiyatlar hukm surgan mustabid tuzumning og'ir sharoitlari davrida barkamol ziyolilarimiz bor imkoniyatlardan foydalangan holda ta'lim tizimida jonbozlik ko'rsatishga harakat qildilar. Lekin, bu hol mavjud tuzum tomonidan partiyaning yo'l–yo'riqlaridan chetga chiqish “aksilinqilobiy” harakat deb baholanib, mahalliy millat vakillari orasidan chiqqan ziyolilarga nisbatan tazyiq kuchaytirilib, ular qatag'on qilinib borildi.

Kommunistik rejim shu yo'l bilan avvalo mamlakatdagi har bir millatning eng ilg'or, mustabid tuzum mohiyatini tushunib yetadigan qismini yo'qotishga harakat qildi. Bu qabihliklarni amalga oshirish maqsadida, ular “aksilinqilobiy” guruhlarini “fosh etish”ga kirishdi. Kommunistik partiya har qanday chiqishlarni ayovsiz bostirdi. 1925 yil 22 noyabrda bo'lib o'tgan II–umumo'zbek partiya qurultoyida so'zga chiqqan partiya tashkilotining kotibi V.I.Ivanov – “respublikani bolsheviklashtirishda qurbonlar berib bo'lsa ham, lenincha o'zakni yuzaga keltirish kerakligini, bundan boshqa yo'l yo'qligini uqtiradi. O'z ishiga sovuqqon bo'lgan kishilarga nisbatan shafqatsiz bo'lish kerakligini, bunda u partiya–sovet ishlarini olib borishda, boshqalar ishni engil–elpi olib borish mumkin emasligini his qilish uchun ba'zilarni hatto o'ldirishga majbur bo'lish kerakligini” – ta'kidlab o'tadi<sup>[8]</sup>.

XX asr 20 yillari oxiriga kelib, ijtimoiy–iqtisodiy, madaniy–ma'naviy sohalar ustidan qattiq nazorat o'rnatildi. Siyosiy erkinliklar taqiqlandi. Ijtimoiy–iqtisodiy ribojlanishning muqobil yo'llarini amalga oshirishga uringan kishilarga nisbatan “guruhbozlikka qarshi kurash” shiori

ostida ayblar qo'yilib, jazoga tortila boshlandi. Shu tariq ochiq zug'um va qamashlar-qatag'onliklar boshlandi. Qatag'onlikning qonli tig'i birinchi navbatda ta'lim sohasida xizmat qilayotgan xodimlar, o'qituvchilarga qaratildi. Bu davrda siyosiy qatag'onlik avj oldi. Sovet rejimining qatag'onlaridan milliy ziyolilari eng ko'p aziyat chekdi. Ko'plab qurbonlar berildi. Vatanparvar ijodkorlar, ilm-fan ahli birinchilar qatorida qatag'on qilindi. 1929 yil noyabr oyida atoqli ma'rifatparvar Munavvar Qori Abdurashidxonov boshchiligida "Milliy istiqlol" tashkilotining a'zolari sifatida 87 nafar kishi qamoqqa olinib, 15 nafari otishga hukm qilindi. SSSR Minstrlar soveti qoshidagi maxsus davlat siyosiy boshqarmasi (OGPU) tomonidan 1931 yil 25 aprelda chiqarilgan maxsus qarorga muvofiq, "aksilinqilobiy" tashkilot a'zosi sifatida sovetlarga qarshi ish olib borganlikda ayblanib, 1931 yil 23 mayda mazkur tashkilotning bir qancha a'zolari otib tashlangan<sup>[9]</sup>.

Ta'lim tizimini "yot unsurlar"dan tozalash ishi natijasida 1930 yilda Maorif xalq komissarligi xodimlaridan xalq maorifini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shib kelayotgan yirik jamoat arboblardan – Mannon Abdullayev (Ramzi), Mahmud Hodiyev (Botu) va ular bilan birga hamkor, hamfikir deb hisoblangan 17 nafar kishi hibsga olindi. Qamoqqa olingan 19 nafar "jinoyatchi" Moskvaga olib ketilib, Butirka qamoqxonasiga tashlandi. 1933 yil 31 martda SSSR Oliy sudi hukmiga binoan 10 nafar kishi dastlab o'lim jazosiga keyin esa uzoq muddatli qamoq jazosiga, qolganlariga 10 yildan 3 yil muddatgacha bo'lgan ozodlikdan mahrum etish jazosi qo'llanilgan<sup>[10]</sup>. Qamoq muddati tugab ozodlikka chiqqanlari yana ommaviy qatag'onlik davrida qaytadan qamoqqa olinib jazoga tortilgan.

Sovet hokimiyatining qatag'onlik siyosati bilan bir vatqda amalga oshirilgan ijtimoiy kelib chiqishi "begona" bo'lganlardan tozalash ishlari O'zbekistondagi ta'lim tizimini ham qamrab oldi. Natijada ko'plab xodimlar, talabalar ham ushbu tozalash ishlari tufayli jabr ko'rdilar.

#### **4. Xulosa:**

Sovet tuzumu davri aynan 1925–1941 yillar oralig'i o'zining ziddiyatligi bilan ajalarib turadi. Chunki bu davrda sovet hokimiyati totalitar tartiboti kuchaygan, xalq xo'jaligining barcha sohaları ustidan bolsheviklar partiyasi yakka hokim va hukmronronligi o'rnatilgan edi.

Sovetlar tomonidan bir qator chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida maqalliy aqoli orasidan ta'lim xodimlarining shakllanishi, madaniyat, ma'rifat, ta'lim-tarbiyaning kompartiya mafkurasiga xos yangi ko'rinishda qaror topib borishi natijasida sovet maktablarining soni ortib bordi. Sovet maktablarida o'qitiladigan barcha fanlar kommunistik mafkura nuqtayi nazaridan talqin etilgan. O'quvchilarning hududiy-an'anaviy hamda milliy xususiyatlariga, ularning milliy ma'naviyatini shakllantirishga jiddiy e'tibor qaratilmagan.

XX asr 20–30–yillarida O'zbekistonda ta'lim mussasalari tashkil etilib, aholining ma'lum bir qismi ushbu ta'lim muassasalariga jalb qilingan bo'lsada, lekin, ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida bir qator jiddiy nuqsonlar mavjud edi. Eng avvalo, sovet ta'lim tizimida bilim oluvchilarning milliy xususiyatlariga, ularning ma'naviyatini ajdodlarimiz ma'naviy merosi asosida shakllantirishga katta e'tibor berilmadi. O'quv yurtlarining o'quv reja va dasturlarida o'qitilishi ko'zda tutilgan fanlar qat'iy belgilangan tartibda, ma'muriy-buyruqbozlik asosida olib borilar edi. Ta'lim tizimida kadrlar muammosining yuzaga kelishiga yana bir sabablaridan biri, ayniqsa, ta'lim tizimini "sinfiy dushman"dan tozalash, ta'lim xodimlarini proletarlashtirish kabi sovetlar tomonidan olib borilgan siyosati edi. Bundan tashqari ta'lim sohasidagi qatag'onlik siyosatining oqibatlarini, eng avvalo malakali o'qituvchilar, xodimlar, ziyolilarning ko'pchiligi jismonan mahv etildi. Kommunistik rejim qatag'onlik siyosati yo'li bilan ta'lim tizimining eng ilg'or, tuzum mohiyatini tushunib etadigan qismini yo'qotib bordi. Natijada mahalliy ziyoli kadrlar yetishtirish muammosi eng dolzarb masalalardan biriga aylanib qolgan edi.

Mustabid sovet tuzumining og'ir sharoitlarida ham barkamol ziyolilarimiz bor imkoniyatlardan foydalangan holda O'zbekistonning ravnaqi va kelajagi, istiqboli uchun jonbozlik ko'rsatib keldilar. Har qanday fikr mavjud tuzumga dushmanlik sifatida baholanayotgan bir paytda ziyolilar tomonidan ilgari surilayotgan hurfikrlilik "aksilinqilobiy" harakat sifatida ta'qibga uchrab, qatag'on qilina boshlandi. Qatag'onlik siyosatining asosiy sabablari xalqni ommaviy qirg'in qilish yo'li, shu yo'l bilan qo'rquvda ushlab turish, totalitar tuzumni mustahkamlash va saqlab qolish, xalqni erkin fikrlashga yo'l qo'ymaslikdan iborat edi. Qatag'onlik insonlarni yoshi, nufuzi, mavqei,

nasabi, millatiga ajratib o'tirmasdan o'z domiga tortib ketardi. Qatag'on qurbonlariga aylangan kishilarning sonlari ming–minglab kishilarni tashkil etadi.

Sovetlarning ma'muriy–buyruqbozlik tuzumi, o'sha davrdagi murakkab siyosiy vaziyat ta'lim tizimida ham o'zining salbiy izini qoldirdi.

### Iqtiboslar/Сноски/References:

---

[1,2]. Абдурахмонова Ж.Н. Совет ҳокимиятининг Ўзбекистонда таълим соҳасидаги катагонлик сиёсати (Самарқанд, Сурхондарё ва Қашқадарё вилоятлари мисолида. 1925–1940 йй). Тарих фанлари илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т.: 2002. 22–23 бетлар.

[3]. Жуммагул Номазовна Абдурахманова. XX аср 20–йилларида эски усул мактабларига бўлган муносабат. // Academic research in educational sciences. Volume 1, issue 3, 2020, 1167–bet.

[4]. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi. 89–jamg'arma, 1–ro'uxat, 4773–yig'ma jild, 15, 61–varaqlar.

[5]. Народное образование в Узбекистане. Тошкент.: 1947, стр. 18–19.

[6]. Народное хозяйство УзССР за 50 лет. Тошкент.: 1974, стр. 256.

[7]. Samarqand viloyat davlat arxivi, 521–jamg'arma, 1–ro'uxat, 101–ish, 66–varaqlar.

[8]. Абдурахманова Жуммагул Номазовна XX аср 20–30 йилларида Ўзбекистоннинг жанубий вилоятлари таълим тизимидаги ҳолат. // Маданият чорраҳалари. 2020. № 4 (2). 38–bet.

[9,10]. Абдурахмонова Ж.Н. Совет ҳокимиятининг Ўзбекистонда таълим соҳасидаги катагонлик сиёсати (Самарқанд, Сурхондарё ва Қашқадарё вилоятлари мисолида. 1925–1940 йй). Тарих фанлари илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т.: 2002. 76–77 бетлар.



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
LOOK TO THE PAST

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000